

BO'LAJAK TEXNOLOGİK TA'LİM O'QITUVCHILARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI MUSTAQİL TA'LİM ORQALI RIVOJLANTIRISH

Karimov Orif Obloqul o'g'li

JDPI Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6321214>

Fan-texnika sohasida o'sib borayotgan ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tayyorlashning barcha tarmoqlarida ta'lim tizimining va tarkibining o'zgarishlarini belgilab beradi. Buning natijasida yangi davlat ta'lim standartlari kiritiladi, bo'lajak mutaxassisga bo'lgan talab ortadi. Shuning uchun bugungi jamiyat bo'lajak mutaxassisning nafaqat ta'lim oluvchilarga kerakli darajada bilim bera olishini, balki ijodiy faoliyatini namoyon qilishga tayyorligini ko'rishni istaydi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. "Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni ang'ay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi"¹. Yuqorida belgilangan talablardan kelib chiqib, texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini samarali o'qitishni tashkil qilish uchun nafaqat auditoriyada balki auditoriyadan tashqari mustaqil o'zlashtirishlarini to'g'ri tashkil qilish muhim hisoblanadi. Talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirida avtomatlashtirilgan texnik tizimlardan foydalanish, avtomatik boshqariladigan qurilmalar yashashda o'qituvchi rahbarligida mustaqil ta'lim topshiriqlari berishi, uni nazorat qilib borishi kerak. Zamonaviy ta'lim jarayoni bu talabalarga faqat bilim berish, ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan bilimlardan foydalanish bo'yicha o'quv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lmay, balki ularga mustaqil bilimlarni qidirib topish, o'zlashtirish shakllari, usullari, vositalarini o'rgatishdan iborat. Bugungi kundagi ta'lim jarayonini tashkil qilishning **kredit-modulli tizimi** - bu modulli o'qitish texnologiyalari va kredit yoki kredit ta'limi bo'linmalarining kombinatsiyasiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish modeli. Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab harakat va o'zaro tizimdir. Kredit-modul tizimidagi e'tibor uning ikkita xususiyatiga qaratilgan:

- talabalarning mustaqil ishi to'g'risida;
- o'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimini va talabalarning ta'lim yutuqlarini baholashning reyting tizimini ta'minlash bo'yicha.

Kredit-modulli tizimning joriy etilishi o'qituvchi va talabaning samarali ishini rag'batlantirishning muhim omilidir. Modul va kredit tushunchasi - modullar ma'lum bir professional faoliyat ob'ektiga muvofiqlik belgisi bilan birlashtirilgan ta'lim elementlari tizimi sifatida ishlab chiqilgan. Ikkinchisi, talabaning aqliy faoliyati jarayonida ushbu ma'lumot bilan

¹ N.Muslimov, O.Qo'ysinov Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi. Toshkent 2014

ishlashga imkon beradigan, mustaqil mantiqiy tuzilishga va tarkibga ega bo'lgan ma'lum miqdordagi ma'lumot sifatida qaraladi. Kredit-modulli tizimning joriy etilishi o'qituvchi va talabaning samarali ishini rag'batlantirishning muhim omilidir².

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Talabalarda mustaqil bilimlarni to'ldirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan kerakligini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish, sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta'minlanadi, hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Bo'lajak mutaxassislarni pedagogik tayyorgarligini oshirish hayot oldiga qo'ygan yangi vazifalar nuqtai nazaridan oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb muammo. Oliy ta'lim nafaqat talabani o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur tayyorlashni, balki ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni ham anglatadi. O'quv jarayonida pedagogik faoliyat elementlarini amalga oshirish bo'yicha talabalarning mustaqil ishlashi uchun vazifalar tizimi o'qitishning faol usullaridan ularning xilma-xilligi, shu jumladan ishbilarmonlik o'yinlari elementlaridan keng foydalanishni nazarda tutadi.

Texnologik ta'lim talabariiga avtomatlashtirilgan texnik tizimlardan foydalanish asosida maxsus kompetesiyalarini rivojlantirish mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- o'quv topshirig'ining motivatsiyasi;
- kognitiv vazifalarni aniq bayon qilish;
- ishni bajarish algoritmi, usuli, talabaning uni bajarish usullari to'g'risida bilimi, foydalaniladigan adabiyotlar, video qo'llanmalar, virtual platformalardan foydalanishni bilishi;
- o'qituvchi tomonidan hisobot shakllarini, ish hajmini, uni topshirish vaqtini aniq belgilashi;
- konsalting yordam turlarini aniqlash (sozlash, tematik, muammoli konsultatsiyalar, bajarib ko'rsatish);
- baholash, hisobot berish va boshqalar mezonlari;
- nazorat turlari va shakllari (amaliy, ko'rgazmalar, musobaqalar va boshqalar).

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, texnologik ta'lim yunalishi buyicha ta'lim olayotgan talabalarning bilim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda mustaqil ta'lim olishning auditoriyada va auditoriyadan tashkari ishlarini to'g'ri tashkil qilish, ta'lim sifati va samaradorligiga yetarlicha o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. N.Muslimov, O.Qo'ysinov Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi. Toshkent 2014

² K.Mamajonova, O.Karimov, B.Norboyev Mutaxassislik fanlarini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil qilish (Texnologiya fanini o'qitish metodikasi misolida) Jizzax 2021

2. K.Mamajonova, O.Karimov, B.Norboyev Mutaxassislik fanlarini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil qilish (Texnologiya fanini o'qitish metodikasi misolida) Jizzax 2021
3. <http://www.pedagog.uz>